

«Ona tili» 8-sinflar uchun  
1-dars  
DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Mavzu:	KIRISH SUHBATI. «SO'ZDAN SO'ZNING FARQI BOR....»
Mavzuga oid tayanch tushunchalar:	<i>Viqor, kibr, g'urur, gunoh, iffat, harom-xarish, hayo, odob, ma'naviy, ma'naviyat, ziyo</i>
Maqsad va vazifalar:	<p>Maqsadlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) <i>ta'limi</i>: Ona tili fanining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did, estetik ong, ona tiliga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.</li> <li>b) <i>tarbiyaviy</i>: <i>kishilarning fazilatlari va nuqsonlari haqida suhbatlashish, o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirishga ko'maklashish</i></li> <li>c) <i>rivojlantiruvchi</i>: O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.</li> </ul> <p>Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ularda mavzu asosida bilim va ko`nikmalarni shakllantirish, kengaytirishga erishish.</li> </ul>
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	<p>Dars turi: yangi bilim va tushunchalarni shakllantiruvchi.</p> <p>Dars uslubi: an'anaviy, noan'anaviy (keragining tagiga chiziladi)</p> <p>Dars jahozi: «Ona tili» darsligi, mavjud texnik vositalar, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar.</p> <p>Nazorat: og`zaki nazorat, savol-javob.</p>
O`quv jarayoniga oid kompetensiyalar	<p>Tayanch kompetensiya elementlari:</p> <p>Milliy va umummadaniy kompetensiya, o`zini-o`zi rivojlantirish kompetentsiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish kompetensiysi:</p> <p>Fanga oid kompetensiya elementlari:</p> <p><i>Nutqiy kompetensiya elementlari</i> (tinglab tushunish, so`zlash, o`qish, yozish):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-matnlarni, so`z, iboralarni ma`nosini anglagan holda to`g`ri o`qiy oladi;</li> <li>-o`z fikrini to`g`ri bayon qila oladi.</li> </ul> <p><i>Lingistik kompetensiya elementlari</i>:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-ayiruv-chegegaralov ma`nosini ifodalash bo`yicha malaka shakllanadi;</li> <li>-nutq ifodasida ayiruv-chegegaralov yuklamalaridan o`rinli foydalana oladi.</li> </ul>
Kutiladigan natijalar:	<p>O`qituvchi: Yangi pedagogik texnalogiyalarni o`zlashtirish va darsga tadbiq etish, takomillashtirish. O`z ustida ishslash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan moslash, qo`shimcha materiallar yig`ish, qo`shimcha adabiyotlar o`qish, pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O`quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi, yakka holatda va guruh bo`lib ishslashni o`rganadi. O`z-o`zini nazorat qilishni o`rganadi, tasavvuri kuchayadi.</p>
Kelgusi rejalar:	<p>O`qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o`z ustida ishslash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O`quvchi: Mustaqil ishslashni o`rganish. O`z harakatlarini aniq bajara olish, shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar topish, uni o`rganish, o`z fikrini, gurux fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish, malaka hosil qilish</p>

## DARS JARAYONI VA TEXNOLOGIYASI

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
<i>I-bosqich. Tashkiliy qism</i>	O`quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o`quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daq
<i>2-bosqich. O`tilgan mavzuni takrorlash</i>	1. Uy vazifasi bilan ishlash. 2. O`tilgan mavzu yuzasidan takrorlash savollari.	Suhbat	2 daq 5 daq
<i>3-bosqich. Yangi mavzu bayoni</i>	1. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilarga murojaat etiladi 2. Yangi mavzu yuzasidan ma'lumot berish	“Aqliy hujum” Tushuntirish	5daq 10 daq
<i>4-bosqich. Mustahkamlash</i>	1. Darslik bilan ishlash. 2. Testlar bilan ishlash	Mustaqil ish Izlanish	10 daq 7 daq
<i>5-bosqich. Dars yakuni va baholash</i>	O`quvchilarning dars davomidagi faolligi hisobga olinib, reytingi e`lon qilinadi. Dars yakunlanadi.	Baholash	2 daq
<i>6-bosqich. Uyga vazifa berish</i>	Uyga 3-4 mashq beriladi.	Tushuntirish	2 daq

*Dars shiori: Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz. ( A. Navoiy )*

*Foydalaniladigan adabiyotlar:*

«Ona tili» 8-sinf uchun darslik. 8-sinf darsligining elektron varianti.

*I. Darsning borishi:*

- a) salomlashish;
- b) sinf tozaligi va davomatni nazorat qilish;
- c) kirish suhbat, o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirish.

*II. O`tgan mavzuni so`rash.*

- a) individual - tarqatma materiallar, kartochka;
- b) frontal (guruh bilan ishlash).

*III. Yangi mavzu*

*I-topshiriq.Hikmatlarni o`qing va mag`zini chaqing.*

1.Boshimizga kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, me'yordan ortiq so`ylaganimizdan kelur. 2. Viqor deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o`z fe`lini saqlamoqqa aytilur. 3. Intizom deb ibodatlarimizni, ishlarimizni o`z vaqtida tartibi ila qilmoqqa aytilur. Agar yer yuzida intizom bo`lmasa edi, insonlar bir daqiqa ham yasholmas edilar.4. Iffat deb gunoh va buzuq ishlardan saqlanmoqqa aytilur. Bizni gunohdan saqlaguvchi, harom-xarishdan nafsimizni asrovchi narsa faqat iffatimizdir. 5. Hayo deb ishda, so`zda odobda rioya qilmoqni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma`naviy nuring ziyyosiga muhtojdir.

Abdulla Avloniy

**Bilib oling!**

Tilni bilish so`z boyligiga ega bo`lish, so`zning ma`no nozikliklarini anglash, ulardan to`g`ri, o`rinli va odob bilan foydalanishdir.

*1-mashq. Quyidagi izohlardan viqor,kibr, g'urur, gunoh, iffat, harom-xarish, hayo,*

*odob, ma'naviy, ma'naviyat, ziyo so'zlarining ma'nosini aniqlab lug'at daftaringizga ko'chiring: 1) vijdoni poklik, nomus; 2) mag'rurona va ulug'vor ko'rinish, salobat;; 3) o'zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi; 4) insonning o'z qadr-qimmatini bilishi,, hurmat qilishi; izzat-nafs; 5) odob- axloq doirasiga sig'maydigan ish, nojo'ya xatti-harakat; ayb; 6) nopol, iste'molga yaramaydigan; 7) nojo'ya, noma'qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat; sharm; 8) bilim, ilm, ma'rifat; 9) axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid; 10) ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomalalik.*

*Savol va topshiriqlar*

1. *Odobning qanday turlarini bilasiz?*
2. *"Odobni odobsizdan o'rgan" maqolining mazmunini qanday tushunasiz?*
3. *Kibr va g'ururning farqi nimada?*
4. *Kibrli kishi manman bo'ladimi yoki mag'rur?*
5. *Gerdayish kibrga kiradimi yoki g'ururga?*

*2-mashq. Kishilarda uchraydigan fazilat va nuqsonlarni ifodalovchi zid ma'noli so'zlarni ikki ustunga ajratib yozing.*

*Namuna:*

Fazilatni ifodalovchi so'zlar	Nuqsonni ifodalovchi so'zlar
Savob	Gunoh
Kamtar	Manman

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Og'zaki savol-javob.

V. Uyga vazifa. 3-mashq.

4-mashq. Sinfda lug'at daftariga yozgan so'zlaringizni ma'nolari bilan yod oling.

VI. Dars yakuni. Baholarni tahlil qilish.

O'IBDO': \_\_\_\_\_

«Ona tili» 8-sinflar uchun  
2-dars  
DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

Mavzu:	ADABIY NUTQ ME'YORLARI. NUTQNING KO'RINISHLARI
Mavzuga oid tayanch tushunchalar:	<i>Adabiy nutq, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub publisistik uslub, ilmiy uslub, rasmiy idoraviy uslub</i>
Maqsad va vazifalar:	<p>Maqsadlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) <i>ta'limiyo'quvchilarga adabiy nutqning me'yordagi va ko'rinishlari haqida to'liq ma'lumot berib, tushuntirish.</i></li> <li>b) <i>tarbiyaviy:</i> Ona tili fani orqali o'quvchilarga DTS asosida dars berish.</li> <li>c) <i>rivojlantiruvchi:</i> O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.</li> </ul> <p>Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, kengaytirishga erishish.</li> </ul>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	<p>Dars turi: yangi bilim va tushunchalarni shakllantiruvchi.</p> <p>Dars uslubi: an'anaviy, noan'anaviy (keragining tagiga chiziladi)</p> <p>Dars jihizi: «Ona tili» darsligi, mavjud texnik vositalar, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar.</p> <p>Nazorat: og`zaki nazorat, savol-javob.</p>
O'quv jarayoniga oid kompetensiyalar	<p>Nutqiylar (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;</li> <li>Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi :</li> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta), ma'lumotlar topish.</li> <li>O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:</li> <li>– shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, o'z xatti-harakatini adekvat baholash, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.</li> </ul> <li>Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:</li> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;</li> <li>Milliy va umummadaniy kompetensiya:</li> <ul style="list-style-type: none"> <li>– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farqlay olish.</li> </ul> </ul> </ul>
Kutiladigan natijalar:	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsga tadbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan moslash, qo'shimcha materiallar yig'ish, qo'shimcha adabiyotlar o'qish, pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi, yakka holatda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, tasavvuri kuchayadi.</p>
Kelgusi rejalar:	<p>O'qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: Mustaqil ishlashni o'rganish. O'z harakatlarini aniq bajara olish, shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish, uni o'rganish, o'z fikrini, gurux fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish, malaka hosil qilish</p>

## DARS JARAYONI VA TEXNOLOGIYASI

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
<i>I-bosqich. Tashkiliy qism</i>	O`quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o`quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	Suhbat	2 daq
<i>2-bosqich. O`tilgan mavzuni takrorlash</i>	3. Uy vazifasi bilan ishlash. 4. O`tilgan mavzu yuzasidan takrorlash savollari.	Suhbat	2 daq 5 daq
<i>3-bosqich. Yangi mavzu bayoni</i>	3. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilarga murojaaat etiladi 4. Yangi mavzu yuzasidan ma'lumot berish	“Aqliy hujum” Tushuntirish	5daq 10 daq
<i>4-bosqich. Mustahkamlash</i>	1. Darslik bilan ishlash. 2. Testlar bilan ishlash	Mustaqil ish Izlanish	10 daq 7 daq
<i>5-bosqich. Dars yakuni va baholash</i>	O`quvchilarning dars davomidagi faolligi hisobga olinib, reytingi e`lon qilinadi. Dars yakunlanadi.	Baholash	2 daq
<i>6-bosqich. Uyga vazifa berish</i>	Uyga 3-4 mashq beriladi.	Tushuntirish	2 daq

*Dars shiori: Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz. ( A. Navoiy )*

*Foydalilanidigan adabiyotlar:*

«Ona tili» 8-sinf uchun darslik. 8-sinf darsligining elektron varianti.

*I. Darsning borishi:*

- a) salomlashish;
- b) sind tozaligi va davomatni nazorat qilish;
- c) kirish suhbat, o`quvchilarning og`zaki nutqini o'stirish.

*II. O'tgan mavzuni so'rash.*

- a) individual - tarqatma materiallar, kartochka;
- b) frontal (guruh bilan ishlash).

*III. Yangi mavzu:*

*2-topshiriq.Matnni o'qing.*

*Til-fikrni bayon etish va o'zgalar fikrini tushunishning eng asosiy vositasi. U o'z vazifasini og`zaki va yozma shaklda bajaradi. Til ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: adabiynutq va sheva nutqi. Faqat adabiy nutq yozma shaklga ega. Shevaning belgilab qo'yilgan qonuniy me'yorlari yo'q.*

*Adabiy nutq –xalq tilining ishlov berilgan, qat'iy qoidalashtirilgan ko'rinishi. U ko'p shevali millatning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir so'z va qo'shimchaning adabiy nutqdagi talaffuzi va imlosi, tinish belgilarining qo'llanishi, odatda, qoida sifatida qonun bilan aniq belgilab qo'yiladi. Zarur hollarda bu qoidalarga amal qilmaslik qo'pol xato, qonunni buzish sifatida baholanadi. Og`zaki adabiy nutqning ham yozma adabiy nutqning ham o'z qoidalari bor. Har doim ham aytigandek yozish, yozigandek aytish to'g'ri bo'lavermaydi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish va nashr ishlari, ommaviy axborot vositalarining xabarlari adabiy nutqda beriladi. Adabiy nutq me'yorlariga amal qilmaslik savodsizlik va madaniyatsizlik emas, balki o'z ona tiliga nisbatan humatsizlikdir. "Ona tili" o'quv predmeti o`quvchilarni so'z boyligini oshirib, so'z qo'llash malakasini shakllantiradi va yuksaltiradi. Faqat rasmiy holatlarda adabiy nutq me'yorlariga rioya qilish talab etiladi. Esda tutish lozimki, oila davrasida, o'zaro suhbatlarda sheva nutqida so'zlash ayb emas. Madaniyatli kishi adabiy nutqqa ham, sheva*

*nutqiga ham o'z o'rnida rioya qiladi.*

*Adabiy nutqning turli qo'llanish sohalari mavjud. Masalan, og'zaki so'zlashuv sohasi, badiiy adabiyot sahasi, axborot-targ'ibot sohasi, ish yuritish sohasi, ilmiy soha. Adabiy nutqning biror sohaga xoslangan bunday ko'rinishi adabiy nutq uslubi deyiladi..*

Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko'rinishlari — uslublari mavjud.

Bular quyidagilar:

1) so'zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub; 4) ilmiy uslub; 5) rasmiy-idoraviy uslub.

So'zlashuv uslubi - oilada, ko'cha-ko'yda fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi. So'zlashuv uslubi, ko'pincha, dialog shaklida bo'ladi. So'zlashuv uslubida adabiy nutqning og'zaki me'yorlariga qat'iy rioya qilish talab etilmaydi. Ammo turli sheva vakillari suhabatida adabiy nutqning og'zaki me'yorlariga rioya qilish madaniyatatlilik hisoblanadi.

Publitsistik uslub axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga xoslangan ommaviy axborot vositalari (radio-televiedenie, gazeta-jurnallar) uslubidir.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir.

Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanilishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.

*3-topshiriq.* Matnlarni o'qing. Ularning har biri adabiy nutqning qaysi uslubiga xosligini aniqlang.

1. Ma'lumotnomasi Murodjon Yo'ldoshevga uning O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida ishlayotganligi haqida berildi.
2. Kimyoviy suv molekulasi bir atom kislород va ikki atom vodoroddan tashkil topadi. Bunday suv tabiatda uchramaydi va maxsus usul bilan hosil qilinadi.
3. G'alaba! Sen uyimizga sovg'a-salomlarga to'lib emas, atrofda bir holatda tovoni teshik askar etigini kiyib, horib-charchab, sillang qurigan holda kirib kelding.

5-mashq. Yuqoridagi ilmiy matn mazmunini jadval ko'rinishida ifodalang

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

*Savol va topshiriqlar*

1. *Adabiy nutq me'yorlari haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Adabiy nutqning uslublari deganda nimani tushunasiz?*
3. *Adabiy nutqimizning keng qo'llanuvchi uslublari qaysilar?*
4. *Oila a'zolari shevada suhabatlashmoqda. Ulardan faqat bittasi, shevada erkin gaplasha olsa-da, adabiy nutqda so'zlamoda. Bu to'g'rimi? Nega?*
4. *Adabiy nutqni yaratishga qanday ehtiyoj sabab bo'ladi?*

V. Uyga vazifa

6-mashq. Quyidagi izohlardan uslub, malaka, sheva, targ'ibot, adabiy so'zlarining ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va uni og'zaki bayon qilishga tayyorlaning.

VI. Dars yakuni. Baholarni tahlil qilish.

O'IBDO': \_\_\_\_\_

**Ushbu dars ishlanmani namuna sifatida foydalanishingiz mumkin. Dars ishlanma 2019-2020-o`quv yili yangi darslik bo`yicha tayyorlangan. Yillikgini to`liq olish uchun quyidagilarga murojat qiling!!!**



**@Lider\_admin**



**+998(99)005-22-44**

**Ushbu dars ishlanma narxi: 15 ming so`m**

**Eslatma!!!** Ushbu dars ishlanma sizga **PDF** shaklida beriladi. Tez sotib olish uchun **8600310426671822** shu karta raqamga click qilgandan so`ng **+998990052244** telegramdan yozib va tolov qilganingiz haqidagi rasm (screnshoot) ni jo`natasiz va qaysi kerak ekanligini yozib qoldirasisiz. Biz tez orada sizga faylni tashlaymiz.

**Click uchun: 8600310426671822**

**Payme uchun: 8600310426671822**

**Telefon qilmang va SMS yozmang! Telegram orqali oson bog`laning.**